

**O‘ZBEK VA JAHON DRAMATURGIYASIDAGI NAZARIY  
MASALALARNING QIYOSIY TADQIQI**

**Vaziraxon Ahmedova,**

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri (PhD)*

*I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika*

*universiteti Olmaliq filiali*

[vaziraahmedova1112@gmail.com](mailto:vaziraahmedova1112@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasining mavzu ko‘lami, dramalarda nazariy masalalarning yoritilishi jahon dramaturgiyasi, xususan, fransuz, nemis, ispan va italyan dramaturgiyasidagi nazariy jihatlari qiyosiy tahlilga tortilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** drama, personaj, perepetiya, janrlar genezisi, komizm, tragizm, total teatr, epik teatr, pritcha, remarka.*

***Annotation.** This scientific article examines the general theoretical problems of Uzbek drama of the period of independence. The subject area of Uzbek dramaturgy, theoretical problems of dramaturgy, theoretical aspects of world dramaturgy, in particular, French, German, Spanish and Italian dramaturgy, are subjected to comparative analysis.*

***Keywords:** drama, character, vicissitudes, genesis of genres, comedy, tragedy, total theater, epic theater, parable, remark.*

Barchamizga ma‘lumki, istiqlol davri adabiyotining yo‘nalishlari, mavzular ko‘lami, qahramonlari va dramatik konflikt tabiati, mualliflarning yondashuvi hamda yaratilgan asarlar poetikasigacha bo‘lgan jarayonlar, siyosiy-mafkuraviy to‘siqlardan xoli bo‘lgan erkin ijodiy muhit, jahon adabiyotining hayotbaxsh adabiy-estetik an‘analari poydevori ustiga qurilmoqda. Shunga ko‘ra ham mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasi o‘ziga xos ijodiy-estetik jarayon deb hisoblash mumkin.

Adabiyotshunoslar B.Imomov, H.Hakimov, H.Abdusamatov, S.Mirvaliev, Q.Jo‘raev, I.G‘aniev, Sh.Rizaev, A.Soliev, T.Islomov, B.Sheraliev, N.Odilova, D.Rasulmuhamedova, D.Rahmatullaeva, M.Otajonova, M.Umarova, N.Tursunovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘zbek dramaturgiyasining rivojlanishi va shakllanishi tadrijiylik asosida tadqiq etilgan. Ularda o‘zbek dramaturgiyasi tarixi, drama nazariyasi, dramaturg mahorati, tarixiy voqelikning badiiy talqini, jadid dramasiining tabiati, tarix, zamon va qahramon, sahnaviylik sirlari kabi muammolar keng tahlilga tortildi. Maqolani yoritishda sotsiologik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

O‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatri tarixan qisqa davr (1911-1913)ni o‘z ichiga oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Abdulla Badriy, Nusratulla Quadratulla qalamiga mansub pyesalar, Abdulla Avloniy va Hamzaning ayrim sahna asarlari istiqlol yillariga kelib yanada keng ommalashdi.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Shubhasiz, o‘zbek jadid dramasi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra Yevropa, qolaversa, turk, tatar, ozarbayjon va rus dramaturgiyasi tajribalari, realistik tamoyillariga tayangan holda ma‘rifatparvarlik yo‘nalishida taraqqiy qildi. M.Behbudiy, A.Avloniy, Hamza, G‘.Zafariy, Fitrat kabi dramaturglarning asarlarida bu hol mavzuni ijtimoiy-ma‘rifiy nuqson va ziddiyatlar negizida tanlash, qahramonlar obrazi, xarakter xususiyatlarini ochish, syujet va kompozitsiya tuzish kabi jihatlar ifodasida namoyon bo‘ladi. Ilk drama va tragediyalar dastlab havaskorlik teatrlari, so‘ngra professional jamoalar tomonidan sahnaga qo‘yildi. Sho‘ro hokimiyati o‘rnatilgach, “inqilobiy” targ‘ibotchilik g‘oyalari birinchi planga chiqdi. Qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, inson taqdiri va ruhiy-psixologik kechinmalarini tasvirlash malakasi o‘zlashtirila boshlandi.

Dramaturglar izlanish yo‘lida og‘zaki xalq teatri an‘analari: qiziqchi va masxarabozlar ijro san‘atiga xos tasvirlash usul va vositalari, dehqon, xo‘jayin va xizmatkor, temirchi, yetim bola singari oddiy kishilardan tanlangan qahramonlar xarakterini tipiklashtirish, jonli dialoglar, impravizatsion topqirlik yo‘sinlarini ijodiy o‘zlashtirishga intildilar. Buning ta‘sirida teatr muayyan darajada xalq hayotiga yaqinlashib, uning haqqoniylik darajasi ortdi. O‘zbek dramaturgiyasi mavzu va janr jihatidan yangilana boshladi. Pyesalarning tarkibi – kompozitsiyasi yangilandi. Tashqi fabula vaziyatlari tasviridan ichki psixologik jarayonlar mohiyatini ifodalashga o‘tila boshladi. “Muqanna” (H.Olimjon), “Jaloliddin” (M.Shayxzoda), “Alisher Navoiy” (Uyg‘un va Izzat Sulton) pesalarida ma‘rifatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari yetakchi pafos darajasiga ko‘tarildi. “Mirzo Ulug‘bek” (M.Shayxzoda) falsafiy-poetik dramasida mutafakkir shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy-axloqiy qanoatlari davr va shaxs fojiasi muammosi tegrasida murakkab ijtimoiy-psixologik to‘qnashuvlar fonida aks etdi. “Nodirabegim” (Turob To‘la) pyesasida falsafiy muammolarni poetik talqin qilishga intilish kuzatildi. Umuman, dramaturgiyada lirik va dramatik xususiyatlar uyg‘unlasha boshladi.

Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida yangi uslubiy yo‘sinlar va janriy shakllar ana shu mustahkam poydevorga tayangan holda paydo bo‘ldi. Ko‘plab dramatik asarlarda shaxs va davr muammolari qalamga olindi, sahnaga olib chiqildi. Bu hol o‘zbek dramaturgiyasining miqdor jihatidan o‘sishi va jahon dramaturgiyasining fojiali to‘qnashuvlar drammatizmi, lirizm va drammatizm sintezi, romantik tuyg‘ular hamda falsafiy umumlashmalarni ifodalash, qahramonlar xakteri tasvirida ijtimoiy muammolarni psixologik dalillash kabi ilg‘or yutuqlarini ham imkon qadar ijodiy o‘zlashtirishiga yo‘l ochdi.

Shubhasiz, taraqqiyot dramaning tarix va zamonaviylik yo‘nalishini belgilab berdi. Shuning uchun bu yillarda yaratilgan “Sohibqiron Amir Temur” (A.Oripov)

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

asari falsafiy-romantik drama janriga mansub bo‘lsa, xalq an‘analari, urf-odatlarini avaylab-asrash mavzusidagi “Chimildiq” (E.Xushvaqto‘v) asari yengil va yumshoq yumori bilan melodramaga ancha yaqin turadi. “Farishta va Shayton” (Sanjar Imomov) pesasida fars (*xalq teatri va komediyaga xos yengil kulgi*) va grotesk unsurlari jamlanganligini kuzatish mumkin.

Shu o‘rinda mazkur davrda jahon dramaturgiyasidagi yangilanishlarni tahlil etib o‘tish ham o‘rinli. XX-XXI asrlar davomida Sharqiy Yevropa mamlakatlarida dramatik asarlarni sahnalashtirish<sup>1</sup> jarayonida chuqur tarixiy ildizlariga ega madaniy an‘analardan muayyan darajada chekinish, rejissyor rolining ortishi natijasida ilg‘or texnologiya yutuqlaridan faol foydalanish harakati kuchaydi.

Frantsuz teatr san‘atida A.Arto, J.Vilar, R.Planshon, J.Kokto, A.Salavr asarlarida syurrealizm yetakchi yo‘nalishga aylandi<sup>2</sup>. Muammoli va intellektual teatr rivoj topdi. Ijtimoiy, axloqiy, diniy va estetik muammolarni aks ettirishdan voz kechish va mifologik syujetlarni qayta idrok etish, yangicha zamonaviy motivlar bilan boyitish asosidagi dramalar yuzaga keldi. Teatr san‘atining avangard yo‘nalishlari shakl va uslublari, xususan, ramziy-majoziy obrazlar yaratish usullari ijodiy o‘zlashtirildi.

Germaniyada V.Gazenklever, E.Toller, G.Kayzer, F.Unru dramalarida ekspressionizm estetikasi o‘zlashtirilib, hajviy pafos va falsafiy mazmun chuqurlashdi. Muammoli, diniy, axloqiy yoki didaktik-allegorik qarashlar – xalq donoligini o‘z ichiga olgan kichik hajmli hikoya (pritcha)ga asoslangan pyesalarda tomoshabin tuyg‘ularidan ko‘ra, uning ongiga ta‘sir etish muhim sanala boshladi. “Total teatr”, “epik teatr” tushunchalari paydo bo‘ldi. “Epik teatr”ning asosiy vazifasi tasvirlash orqali tomoshabin hissiyotlariga ta‘sir qilish emas, balki fikr-tuyg‘uni uning ongiga yo‘naltirish, voqelikni ratsional idrok etishga ko‘maklashish sanala boshladi.

Taniqli nemis dramaturgi va rejissyori Bertold Brext, amerikalik dramaturglar Tenness Uilyams va Artur Millerlar ishlab chiqqan ushbu nazariyaning asosini sahna va tomoshabin o‘rtasidagi muloqotni o‘zgartirish masalasi tashkil qiladi. “Epik teatr”ning barcha tamoyillari (*syujet bilan aloqadorlik, dekoratsiya va kiyim-kechaklardan imkon qadar kamroq foydalanish, asar asosiy g‘oyasini ifodalovchi musiqiy parchalar kiritish, realizm va naturalizmning sintetik birlashuvi va b.*) mantiqan shu munosabatdan kelib chiqadi.

<sup>1</sup> Lebedev O.B. Kartina mira, konsepsiya lichnosti, tipologiya konflikta v literature klassitsizma // <https://lit.wikireading.ru/45726>

<sup>2</sup> <https://allrefrs.ru/3-9793.html> ; <https://www.dissercat.com/content/interpretatsiya>

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Kristofer Martalerning<sup>3</sup> zohiran oddiy, botinan teran ramziy mazmun tashuvchi “raqs teatri”da esa opera, kino va drama unsurlari faol qo‘llanildi. Olamning plastik obrazi yaratilib, ishoraviylik kuchaytirildi.

Italyan dramaturglari Luidji Pirandello<sup>4</sup> va Ettore Petrolini<sup>5</sup> avangard intellektual teatrga e‘tibor qaratishdi. Ispaniya teatrida mif va metaforizm, AQSh teatrlarida esa, ekspressionizm va realizmning murakkab uyg‘unlashuvi kuzatildi. Yudjin Gladson O‘Nil,<sup>6</sup> Artur Miller<sup>7</sup> asarlarida alohida odamning ruhiy dunyosini ko‘rsatishga e‘tibor ortdi. Tenness Uilyamsning<sup>8</sup> “plastik teatr” kontseptsiyasi yuzaga kelgach, ijtimoiy-psixologik dramalarda mumtoz an‘analar rad etildi. Inson fojiasi ijtimoiy mohiyatini izlash, ironik kolliziyalarni kuchaytirishga e‘tibor ortdi.

Demak, XX-XXI asrlar Sharqiy Yevropa dramaturgiyasi va sahnasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mavjud adabiy-madaniy an‘analar o‘z o‘rnini syurrealistik, muammoli talqinlar, intellektuallik kabi ilg‘or yo‘nalishlarga bo‘shatib bera boshladi. Mifologik syujetlarni qayta idrok etish, yangicha zamonaviy motivlar bilan boyitish asosidagi dramalar yuzaga keldi. Teatr san‘atining avangard yo‘nalishlari shakl va uslublari, ramziy-majoziy obraz yaratish usullari, ekspressionizm estetikasi ijodiy o‘zlashtirildi. Hajviy pafos va falsafiy mazmun chuqurlashdi. Muammoli va pritchka (*1. masal, hikoyat, ramzli hikoya; qiyin (anglab bo‘lmaydigan) narsa; muammo*)<sup>9</sup>ga asoslangan pesalar yuzaga keldi. “Total teatr”, “epik teatr”, “plastik teatr”, “raqs teatri” tushunchalari paydo bo‘ldi. Adabiy sintez hodisasiga e‘tibor ortib, ishoraviylik, ironiya, mifologik talqinlar va metaforizm kuchaydi.

Afsuski, mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasi va teatri bunday keng ko‘lamli o‘zgarishlarni yetarlicha ijodiy o‘zlashtira olmadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek teatrida o‘quvchi (tomoshabin) qalbiga hayajon soladigan, mushohadaga chorlab, estetik qarashlarini charxlaydigan, hayotga, yaratishga undab, unga g‘ayrat va zavq bag‘ishlaydigan badiiy jihatdan baquvvat drama asarlariga kuchli ehtiyoj sezildi. Binobarin, o‘zbek dramaturgiyasi mavjud an‘analar doirasida qolib ketmasligi uchun nazariy asoslari badiiy strukturasi bilan birga, ifoda yo‘sinlarini ham takomillashtirishi lozim. Shubhasiz, buning uchun jahon dramaturgiyasining yuqorida sanalgan ilg‘or tajribalarini milliy-etnik mavzu-

<sup>3</sup> **Kristof Martaler** –shveysariyalik rejissyor va bastakor. Avangard (ekspressionistik) teatr (sahna asarlari) ga absurdga xos unsurlarni kiritgan.

<sup>4</sup> **Luidji Pirandyello** – italyan adibi va dramaturgi 1934-yilning Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori

<sup>5</sup> **Ettore Petrolini** – italyan adibi, dramaturgi, teatr va kino aktyori.

<sup>6</sup> **Yudjin Gladston O‘Nil** – amerikalik dramaturg 1936-yilning Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori

<sup>7</sup> **Artur Asher Miller** – amerikalik yozuvchi va dramaturg.

<sup>8</sup> **Tomas Lanir Uilyams III** (taxallusi **Tyennes Uilyams**) – taniqli amerikalik dramaturg.

<sup>9</sup> Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. II jild. – T: O‘ME nashriyoti, 2013. – 248 b.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

materiallar negizida ijodiy o‘zlashtirish va umuminsoniy miqyoslarga ko‘tarish talab etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Birinchi tom. – Toshkent, Fan, 1978. – B. 13-22.
2. Ahmedova V.A. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida janrlararo diffuziyalanish // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020. 9-son.
3. Ahmedova V.A. Qahramonlik modusining e‘tiqodiy tayanchi// Journal of Universal Science Research, 1(9), Sentabr, 2023
4. Ahmedova V.A. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida yangicha talqinlar (monografiya). T.: - Bookmany print nashriyoti, 2024. – 150
5. Ahmedova V.A. The phenomenon of inter genres diffusion in the uzbek drama of independence period // Academics An International Multidisciplinary Research Journal. India. 2020. № 5. - P. 384-391
6. Goyan Georg. Teatr drevney Armenii T.I, II, – M., 1952;
7. Djaniladze D. Gruzinskiy teatr s drevneyshix vremen do II poloviny XIX veka. – Tbilisi, 1959;
8. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 17-28
9. Imomov B., Jo‘rayev Q., Hakimova H. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – T.: 1995.
10. Islomov T. Tarix va sahna. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998.
11. Lebedev O.B. Kartina mira, konsepsiya lichnosti, tipologiya konflikta v literature klassitsizma // <https://lit.wikireading.ru/45726>
12. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. II jild. – T: O‘ME nashriyoti, 2013. – 248 b.
13. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
14. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
15. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.